

## Xizmatlar sohasini rivojlanishi – O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy o'sishi kafolatidir

Butun dunyoda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu erda, xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

### Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

154 095,2 mlrd. so'm



Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

4 601,2 ming so'm



Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

112,3 %



Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmining  
o'sish sur'atlari

159,7 %



Moliyaviy xizmatlarning  
o'sish sur'ati

28,2 %



Xizmatlarning umumiy  
hajmida transport  
xizmatlarining ulushi


Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rnini juda katta ahamiyatga egadir. Bu ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir.

Iqtisodiy sohada xizmatlar sohasining o'sishi bozor sharoitidagi, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni qabul qilish tezligi va material sarfining kamligi, bu qo'shilgan qiymatning oshishi va pirovardida yalpi ichki mahsulotning oshishiga olib keladigan muhim omillar bilan bog'liqdir.

Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining ajralmas qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan keyingi xizmatlardan iborat rivojlanayotgan tarmoqni talab qiladi.

Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

2019-yil 1-noyabr holatiga respublikada jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 391,0 ming birlikga yetdi.



Xizmatlar sohasida jami 256,8 ming birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2018-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 22,1 % ga oshdi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 65,7 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Taqqoslash uchun: kuzatilgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 17,8 %, qurilish - 9,2 % ga etdi va atiga 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (38,0 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning soni 9,7 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-noyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi va xizmatlar sohasidagi tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ularning umumiy sonidagi ulushi 5,9 % ga yetdi.


Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-noyabr holatiga, xizmatlar sohasida 210,3 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 33,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,2 %, tashish va saqlash - 6,2 %, axborot va aloqa - 3,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,2 %, boshqa turlar - 45,0 % ni tashkil etgan.

### 2019-yil 1-noyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishi


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



O'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 46,5 ming birlikga ko'paydi.

O'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasida yuqori o'sish sur'atlari – 40,0 % kuzatildi. Ushbu sohada band bo'lgan korxonalar va tashkilotlar soni 27,9 mingtaga ko'paydi va 97,5 ming birlikga etdi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida  
xizmatlar sohasida band bo'lgan yangi tashkil  
etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, ming birlik**



2019-yil yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (51,7 ming birlik) o'tgan yilga nisbatan 24,4 ming birlikga ko'paydi.

Bugungi kunda kichik tadbirkorlik sektori barqaror iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlari yaratishga, aholi daromadlari va farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim qismiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, odamlarning farovon hayotini ta'minlash uchun etakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 75,9 % ni kichik tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri keladi.

### **2019- yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

**Kichik tadbirkorlik sub'ektlari**




**Yirik tashkilotlar**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish nafaqat milliy iqtisodiyotni mustahkamlash, uning raqobatdoshligini oshirish, balki birinchi navbatda aholi farovonligini yanada oshirishni anglatadi. Shu sababli davlat tomonidan ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek ularga imtiyoz va preferentsiyalar berish bo'yicha aniq tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmatlar sohasining rivojlanishi yoki, aniqrog'i, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining aniq miqdoriy ustunligi bo'lgan ushbu sohada kichik tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq.

2019-yil 1-noyabr holatiga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlar soni 43,1 ming birlikga ko'paydi va 195,0 ming birlikni tashkil etdi, o'sish 28,3 % ga oshdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 59,5 % ga etdi.





Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasida ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanmoqda.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga etkazib berish, shu qatorida ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish. Shuningdek, sataroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari, sayyohlik agentliklari va boshqalar kiradi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keladi.

---

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi -  
154 095,2 mlrd. so'm**



**O'sish sur'ati -  
112,3 %**

---


Shunday qilib, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 154 095,2 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 31 076,0 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 12,3 % ni tashkil etdi.

Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolari, hududlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishsiz hal qilib bo'lmaydi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 34,3 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eng katta ulush Toshkent (7,1 %), Samarqand (6,5 %), Farg'ona (5,9 %) va Andijon (5,1 %) viloyatlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (1,4 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,0 %) kuzatildi.

Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (119,8 %), Jizzax (116,1%), Xorazm (114,0 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (114,5 %) va Toshkent shahrida (116,2 %) qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Nisbatan past o'sish sur'atlari Toshkent (107,9 %), Samarqand (109,3 %), Farg'ona (109,8 %), Namangan (110,8 %) va Surxondaryo (111,0 %) viloyatlarida kuzatildi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>154 095,2</b>	<b>112,3</b>	<b>4 601,2</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 560,0	114,5	2 425,8
viloyatlar:			
Andijon	7 949,0	112,0	2 573,8
Buxoro	6 592,7	111,5	3 460,0
Jizzax	3 399,0	116,1	2 493,0
Qashqadaryo	7 088,3	111,9	2 189,6
Navoiy	3 963,2	112,6	4 019,4
Namangan	6 025,0	110,8	2 171,8
Samarqand	9 988,2	109,3	2 609,3
Surxondaryo	5 959,7	111,0	2 300,1
Sirdaryo	2 134,1	119,8	2 553,4
Toshkent	10 954,7	107,9	3 759,2
Farg'ona	9 139,0	109,8	2 464,6
Xorazm	4 639,7	114,0	2 513,4
Toshkent shahri	52 836,5	116,2	20 864,2

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 858,8 ming so'mga oshdi va 4 601,2 ming so'mga teng bo'ldi, o'sishi 10,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Toshkent shahri etakchi o'rinni egallaydi. Bu erda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 20 864,2 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.


Namangan (2 171,8 ming so'm), Qashqadaryo (2 189,6 ming so'm) va Surxondaryo (2 300,1 ming so'm) viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi past.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Sirdaryo (17,7 %), Jizzax (13,7 %), Xorazm (12,1 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (12,8 %) va Toshkent shahrida (13,8 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida  
aholi jon boshiga xizmatlar hajmining  
o'sish sur'atlari, %**




Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (106,4 %), Samarqand (107,0 %), Farg'ona (107,8 %), Surxondaryo (108,5 %), va Namangan (108,6 %) viloyatlarida qayd etildi.

Oldingi davr bilan taqqoslaganda (2019-yil yanvar-sentabr) aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 553,1 ming so'mga oshdi.

Toshkent shahrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 118,9 ming so'mga oshdi.

### Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining o'sishi, ming so'm




● 2018-yil yanvar-oktabr bilan taqqoslaganda

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'satilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 28,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (25,1 %), moliyaviy xizmatlar (18,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,7 %) bo'yicha qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmining bir oz oshishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,5 % ga etdi. Shuningdek kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,6 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar - 2,0 %, ijara xizmatlari - 2,1% bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulush qayd etildi.



Deyarli barcha hududlarda bozor xizmatlari hajmining o'sishi moliyaviy va transport xizmatlari, savdo va aloqa xizmatlari, shu jumladan axborotlashtirish kabi xizmatlar tarkibidagi ulushining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda.

**2019-yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar kesimida umumiy tarkibdagi ustun xizmat turlarining taqqoslanishi, %**




**2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>154 095,2</b>	<b>112,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8 778,9	108,6
Moliyaviy xizmatlar	27 892,2	159,7
Transport xizmatlari	43 368,8	104,6
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	20 384,1	102,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 624,3	105,4
Savdo xizmatlari	38 713,0	104,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	4 740,6	103,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5 900,5	105,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 349,2	109,4
Ijara xizmatlari	3 228,4	103,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2 534,2	104,7
Shaxsiy xizmatlar	3 708,6	103,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3 070,1	109,0
Boshqa xizmatlar	5 186,4	102,2

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (159,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (109,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (109,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (108,6 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**



Yuqori bo'lmagan o'sish ijara xizmatlari (3,0 %), shuningdek ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (3,1 %) kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan va mintaqaning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaralarga ega bo'lgan yagona mamlakatdir: shimol va shimoli-


*Dastlabki ma'lumotlar*

g'arbda Qozog'iston, Janubi-g'arbda Turkmaniston, janubda Afg'oniston, janubi-sharqda Tojikiston va sharqda Qirg'iziston.

Hozirgi vaqtda respublikamiz transport infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatda yuklar va yo'lovchilarni barcha yo'nalishlarda va transportning barcha turlarida tashish ehtiyojlarini qondirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Ta'kidlash joizki, transport xizmatlari hajmining o'sishi, birinchi navbatda, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bogliq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, Qurilish loyihalarini yanada amalga oshirish, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

### **2019-yil yanvar-oktabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, %**



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 47,0 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining hajmi 20,6 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida, transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 13,2 % ga yetdi.

Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarning ulushi 10,9 %, yordamchi transport faoliyati esa – 8,3 % qayd etildi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekistonda Trade-in (eski avtomobilni qo'shimcha haq evaziga yangisiga almashtirish) dasturi ishga tushirildi.

*Endi avtomobil sohiblariga mashinalarini avtosalonda mutlaqo yangi avtomobil qiymatiga yetmagan pulni to'lash asosida almashtirish imkonini bersa, minilgan avtomobil olmoqchi bo'lganlar esa, eski mashinaning «toza» ekanini kafolat bilan olish imkoniga ega bo'lishadi.*

*Hozirgi kunda mavjud 81 ta dan 61 ta Uzauto Motors dilerlik kompaniyalari O'zbekistonning Trade-in dasturida qatnashmoqda.*

*Bundan tashqari, mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida [www.trade-in.uz](http://www.trade-in.uz) sayti ishga tushgan, unda mijoz dilerlarda sotuvga qo'yilgan minilgan avtomobillarning ayni kundagi narxini bilishlari, shuningdek ushbu xizmat bo'yicha barcha zarur axborotni va o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblarni olish mumkin.*


*Saytning asosiy xususiyatlaridan biri avtomobil narxi kalkulyatori sanaladi, u onlayn rejimida mijozga minilgan avtomobilning taqribiy narxini aniqlash imkonini beradi. Kalkulyatsiya ikkilamchi bozorda minilgan avtomobillarning ayni kundagi narxlarini hisoblash metodologiyasiga asoslangan. (<https://podrobno.uz/>).*

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 70,2 % ga etdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 29,8 % ni tashkil etdi.


**2019-yil yanvar-oktabr oylarida tashish turlari bo'yicha  
avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining tarkibi, %**



Eng katta ulush Toshkent shahri (17,7 %), Toshkent (13,3 %), Samarqand (11,5 %), Farg'ona (8,8 %), Andijon (8,4 %), Qashqadaryo (7,5 %) va Buxoro (7,4) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulush Sirdaryo (1,7 %), Jizzax (2,7 %), Navoiy (3,0 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,2 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hudular bo'yicha  
avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar ulushi  
(avtomobil xizmatlarining umumiy hajmiga nisbatan), %**




Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Bir mamlakatning boshqa davlatlar bilan tovarlar importi va eksportidan iborat bo'lgan savdosi tashqi savdo, turli mamlakatlarning bir-biri bilan umumiy savdo-sotig'i xalqaro savdo hisoblanadi. Ma'lum bir davlat ichida savdo ijtimoiy zarur iste'molchiga tovarlarni etkazib berish funktsiyani bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

Savdo shu jumladan, elektron xizmatlarining yalpi ishlab chiqarilgan hajmi joriy narxlarda yalpi daromadi, ya'ni sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati aks ettiradilar. Tovarlarini boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotish bo'yicha bitim tuzilgan taqdirda, xizmatlar qiymatida mukofot miqdori aks ettiriladi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 25,1 % ni tashkil etib, bu 38 713,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uchi – 67,2 % ga to'g'ri keladi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




2019-yil yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 25,5 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,3 % ni tashkil etdi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdosi bo'yicha xizmatlarning eng katta ulushi Andijon (84,8 %), Qashqadaryo (83,6 %) va Buxoro (81,9 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida savdo xizmatlarining ulushi, %



- Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida ahamiyatsiz, uning ulushi 45,3 % ni tashkil etdi.

Biroq, Toshkent shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi - 46,2 %. Andijon viloyatida eng kichik ulush – 8,5 %.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Samarqand (10,0 %), Farg'ona (8,6 %), Toshkent (8,2 %) viloyatlarida, Toshkent shahri (8,5 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (7,1 %) qayd etildi.

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Surxondaryo (3,5 %), Qashqadaryo (4,8 %), Jizzax (5,0 %), Namangan (5,3 %) va Sirdayo (5,5 %) viloyatlarida qayd qilindi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 27 892,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10 998,2 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 59,7 % ni tashkil etdi.

---

**Moliyaviy xizmatlar hajmi -  
27 892,2 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati -  
159,7 %**

**Xizmatlarning umumiy hajmida ulush -  
18,1 %**



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,8 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,7 % oralig'ida qayd etildi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori salmog'ga ega emas va u 3,5 % ni tashkil etadi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, %



**Ma'lumot uchun:** *Fitch Ratings xalqaro reyting agentligi O'zbekistonning xorijiy va milliy valyutadagi uzoq muddatli defolt reytingi ("PDЭ") "BB-" darajasida tasdiqladi. Reytinglar bo'yicha prognoz - "Barqaror".*

*Mutaxassislarning fikriga ko'ra, "O'zbekiston reytinglari, bir tomondan, moliyaviy holatining mustahkamligi, mo'tadil darajadagi davlat qarzi va taqqoslanadigan reytinglarga ega bo'lgan mamlakatlarga nisbatan yuqori iqtisodiy o'sishga egaligi aks ettiradi; ikkinchi tomondan, yuqori xomashyo qaramligi, yuqori inflyatsiya va aholi jon boshiga YaIMning nisbatan pastligi nuqtai nazaridan tarkibiy zaifliklar va institutsional muhitning past darajasi va taqqoslanadigan reytingga ega bo'lgan emitentlarga nisbatan boshqaruv sifati aks ettirilgan."*

*Hozirgi vaqtda O'zbekistonda muvofiqlikni baholash uchun ball to'plami mavjud:*

*-ESG 4 "Fuqarolik huquqlari va erkinliklari" parametrlari bo'yicha, chunki Jahon bankining boshqaruv ko'rsatkichlari Fitch suveren reyting modelida eng yuqori ulushga ega, reyting va reyting omillariga tegishli hisoblanadi.*

*- "Siyosiy barqarorlik va siyosiy huquqlar" ESG 5 parametri bo'yicha.*

*- "Qonun ustuvorligi, institutlarning sifati va korrupsiyani tartibga solish va nazorat qilish" ESG 5 parametri bo'yicha.*

*- ESG 4 "Kreditorlarning huquqlari" parametriga muvofiq, chunki qarzni to'lashga tayyorlik va to'lashga tayyorlik reyting va reyting omili uchun muhimdir.*

*Shu bilan birga, Fitch Ratings hisobotiga ko'ra quyidagilar tasdiqlandi:*

*- emitentning qisqa muddatli defolt reytingi "B" darajasida;*

*- milliy valutadagi emitentning uzoq muddatli defolt reytingi "BB-" darajasida, prognoz "Barqaror";*

*- milliy valyutadagi emitentning qisqa muddatli defolt reytingi "B" darajasida;*


*- "BB-" darajasida mamlakatning eng yuqori darajasi;*

*- "BB-" darajasida uzoq muddatli ustuvor ta'minlanmagan reyting.*

*(<https://www.fitchratings.com/>).*

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi Surxondaryo (93,3 %), Sirdaryo (92,7 %), Qashqadaryo (92,3 %), Jizzax (91,1 %), Farg'ona (90,7 %) Samarqand (90,6 %), viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (93,1 %) va Toshkent shahrida (91,4 %) ahamiyatga ega. Eng past ko'rsatkich Andijon viloyatida (86,2 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida  
moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



Hududlar o'rtasida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta xizmatlari hajmi Toshkent (9,6 %), Namangan (8,7 %), Xorazm (7,4 %), Navoiy va Buxoro (7,2 %) viloyatlarida ustunlik qiladi.


Sug'urta xizmatlarining eng past ko'rsatkichlari Andijon (4,6 %), Surxondaryo (5,0 %), Samarqand (5,5 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (5,1 %) va Toshkent shahri (4,9 %) kuzatildi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari, aloqa vositalari bilan jihozlanganligi kuzatilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 8 778,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 108,6 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 79,9 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari – 5,6 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar 7,3 %, axborotlashtirish xizmatlari – 2,9 %, dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 3,5 %, televidenie dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha


*Dastlabki ma'lumotlar*  
xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar – 0,8 % ni tashkil etishi qayd etildi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida  
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**



Telekommunikatsiya xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichlari Qashqadaryo (113,3 %), Andijon (112,9 %), Buxoro (112,7 %) va Farg'ona (111,8 %) viloyatlarida qayd etildi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**



2019-yil yanvar-oktabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmining uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent viloyatida (105,8 %) va Toshkent shahrida (102,8 %) qayd etildi.




Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 5 900,5 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 3,8 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimida ta'lim sohasida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari, mlrd. so'm**




Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-oktabr oylarida 2 486,3 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu erda joylashganligidadir.

2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 105,4 % ni tashkil etdi, hajmi esa 804,8 mlrd. so'mga oshdi va 4 624,3 mlrd. so'mga etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 78,1 % bilan ustunlik qiladi.

### **2019-yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %**




2019-yil yanvar-oktabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 21,9 % ni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Toshkent shahrida – 2 111,4 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 368,9 mlrd. so'mga oshishi kuzatildi.

Buning o'sishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, ularning hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 254,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kam hajmi Sirdaryo viloyatida - 46,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va atigi 8,3 mlrd. so'mga ko'paydi.


Ushbu turdagi xizmatlarning nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (112,7 %) va Jizzax (112,2 %) viloyatlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sishi Namangan (1,2 %), Farg'ona (1,3 %) va Buxoro (2,1 %) viloyatlarida ahamiyatsiz bo'ldi.

Hozirgi kunda mamlakatda tibbiyot va sog'liqni saqlash bir xil yo'nalishda mustaqil O'zbekiston fuqarolarining hayot darajasi va sifatini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan dinamik o'zgarishlar bilan rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 521,1 mlrd. so'mga oshdi va 2 349,2 mlrd. so'mga etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil etdi.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlar ulushini taqqoslanishi, %



Sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Hududlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Toshkent shahri egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 285,7 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 43,1 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Toshkent (9,9 %), Farg'ona (7,8 %), Samarqand (6,1 %), Andijon (5,5 %), Buxoro (5,1 %) va Namangan (5,1 %) viloyatlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi xizmatlarning ulushi nisbatan katta bo'lmagan hududlar Sirdaryo (1,3 %) va Navoiy (1,8 %) viloyatlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.


Bugun respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziologiya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi eng kichik (1,3 %) bo'lishiga qaramay, ularning o'sishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan nisbatan yuqori - 8,5%.

Shu bilan birga, ushbu xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (112,4 %), Navoiy (109,6 %), Buxoro (108,3 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (112,7 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida past o'sish sur'atlari qayd etildi - 101,3 %.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan sog'liqni saqlash  
sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari, %**



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Mamlakatimizda postindustriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanishi bilan xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora o'sib boradi, chunki aholining ehtiyojlari doimiy ravishda o'sib boradi va ularning xilma-xilligi doimiy ravishda kengayib boradi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi**

**71-230-80-59**